

TA'LIM TIZIMIDA YANGICHA YONDASHUVLAR

Normatov Toyir Ahmedovic

h

*Jizzax shahar 12-maktab ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi XXI asr ta'lim tizimi va tizimda sodir bo'layotgan yangiliklar, innovatsion islohatlar haqida ma'lumot berib o'itigan.

Kalit so'zlar: ta'lim, maktab, Yangi O'zbekiston

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz mактабдан qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkonи tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi mактабдан boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliv ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliv ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliv ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdeg'i vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, mактабgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan mактабgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Qabul qilingan "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham mактабgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash maqsadi qo'yilgan. Unga ko'ra kelgusi 7 yillikda davlat mактабgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish, 100 foiz mактабgacha ta'lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlash kabi ustivor vazifalar amalga oshirilishi belgilangan.

Maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, muallimlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom etmoqda. Kelgusi 7 yillikda bu borada maqsad qilingan rejalar ham mazkur sohadagi islohatlarning uzviy davomi bo'la oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish borasida ham qator vazifalar belgilangan. Xususan, olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarini o'quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish; 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish; Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1000 ta multimedia dasturlarini yaratish; ta'lim tashkilotlariga har yili 500 nafar "til egalari" bo'lgan xorijiy mutaxassislarini jalg etish; barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarlarga o'rgatish kurslarini joriy etish; Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta'lim metodikasini barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga joriy qilish; Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalarini pedagog xodimlarining o'rtacha ish haqini 2 barobar oshirish ko'zda tutilgan. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

"O'zbekiston–2030" strategiyasiga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalg qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Viloyatimizda ham Oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ilgarilari 3 tagina oliy ta'lim muassasasi mayjud bo'lgan bo'lsa bugungi kunda ular soni 10 taga yetdi. Bunda xususiy sektorning ham ulushini e'tirof etish lozim. Horijiy va xalqaro universitetlarning filiallari va xususiy oliy ta'lim muassasalarini sog'lom raqobat bilan bugun o'z faoliyatini olib bormoqda. Yoshlarimizning oliy ta'limga qamrov darajasi ham bugun sezilarli darajada o'sgan.

Demak, xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbliji hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Negaki, inson kapitali sifatini oshirmsandan turib, keyingi iqtisodiy o'sishni ta'minlash qiyin kechadi. Shu bois, zarur kuch va resurslarni ta'lim sifatini oshirishga, malakali kadrlar tayyorlashga yo'naltirish nafaqat bugun, balki ertaning ham ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Belgilangan ushbu maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash, jamoatchilik va deputatlik nazoratini kuchaytirish mamlakatimizdagi yetakchi siyosiy kuch hisoblangan O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining har bir faoliga, har bir xalq noibiga alohida mas'uliyat yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni. (O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagи “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son Qarori. (O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son).